

THE CONCEPTUAL SIGNIFICANCE OF RELIGIOUSLY MARKED ALLUSIONS IN AN ARTISTIC TEXT

Fayzullayeva Muhayyo Rakhmatillayevna

Lecturer at the Uzbek State University of World Languages

Tel.: +998 (97) 7572706

Email: muhayyo.fayzullayeva.93@mail.ru

Annotation: The process of interpreting a literary text depends on a number of factors that directly affect the understanding of the conceptual information in the text. Therefore, in the process of interpreting an artistic text, it is very important to analyze the verbal layer of the text, the basic linguistic forms, symbols and signs in it. This thesis contains conclusions about the conceptual significance of religiously marked allusions in the literary text.

Keywords: Literary text, religiously marked allusions, conceptuality, recipient text

DINIY MARKERLANGAN ALLYUZIYALARNING BADIY MATNDA KONSEPTUAL AHAMIYATI

Fayzullayeva Muhayyo Raxmatillayevna

O'zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti o'qituvchisi

Tel.: +998(97)7572706

Email: muhayyo.fayzullayeva.93@mail.ru

Annotatsiya: Badiiy matnning interpretatsiya qilinish jarayoni bir qator omillarga bog'liq bo'lib, ular matndagi konseptual axborotni anglashga to'g'ridan to'g'ri ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun badiiy matn izohlanishi jarayonida matnning verbal qatlami, undagi asosiy lingvistik shakllar, belgilar va ishoralarni tahlil qilish juda muhim ahamiyatga ega. Ushbu tezis badiiy matnda keltirilgan diniy markerlangan allyuziyalarning konseptual ahamiyat kasb etishi yuzasidan xulosalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: badiiy matn, diniy markerlangan allyuziyalar, konseptuallik, retsipient matn

Badiiy matnning o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilishda uni interpretatsiya, ya'ni to'g'ri talqin qilish muammosi asosiy o'rinni egallaydi. Interpretatsiya - bu matnning chuqur konseptual mazmunini ochib berishga qaratilgan maqsadli kognitiv faoliyat hisoblanadi. Tafsir qilish tartibi badiiy matndagi yashirin konseptual axborot, narsa va hodisalarning ichki mohiyati to'g'risida farazlarni tuzish va tasdiqlashdan iborat.

Shu o'rinda aytish joizki, badiiy matndagi konseptual ma'noni ochib berishda allyuziyalarning o'rni beqiyosdir. Allyuziyalarning ajralmas funksiyalaridan biri uning badiiy matn orqali adresatga ma'lum maqsad asosida yo'naltirilganligidir. Buning uchun adresatda yozuvchi maxsus sayqallantirilgan til birliklari orqali yetkazib bermoqchi bo'layotgan implitsit ma'noni anglay olishi uchun zarur bo'lgan yetarli ekstralingvistik bilim tuzilmalari bo'lishi lozim. Natijada allyuziyaning to'g'ri interpretatsiya qilinishi o'quvchida mavjud bilim tuzilmalari sifati darajasiga bog'liq bo'ladi. Shunday qilib, allyuziya semantik tuzilishi ham pretsedent, ham retsipient matndagi konseptual dunyoqarashga oid bilim tuzilmalarini o'zida mujassam etadi. Bunda ushbu allyuziya tomonidan aktuallashtirilayotgan assosatsiyalar va uning alohida komponentlari integratsiyalashuvi natijasida yuzaga kelgan ma'no adabiy matnga ko'chadi. Natijada allyuziya yangi semantik bir butunlik, tasviriylik hamda obrazlilik xususiyatlariga ega bo'ladi va ma'lum voqea-hodisa, narsa yoki qahramonga ishora qiladi. Shu o'rinda I. R. Galperinning bu boradagi quyidagi fikrini keltirib o'tishni o'rinli deb topdik: "Allyuziyalar mifologik, diniy, adabiy, tarixiy qahramonlar, voqealar xarakteristikalarini fikr yuritilayotgan, ya'ni allyuziya keltirilgan matndagi obyektlarga ko'chirish vazifasini bajaruvchi vosita bo'lib, bu o'rinda allyuziya faqatgina avvaldan o'quvchiga ma'lum va mashhur

bo'lgan obrazni tiklabgina qolmay, o'zidan qo'shimcha ma'noni ham adresatga yetkazib beradi". Diniy markerlangan allyuziya esa semantik qatlamida mifologik, adabiy, tarixiy, diniy bilim tuzilmalarini mujassamlashtirgan va ularni adresatning pretsedent matn bilan aloqaga kirishuvi jarayonida jonlantiruvchi kognitiv hamda stilistik lisoniy hodisa hisoblanadi. Ammo diniy markerlangan allyuziyani kognitiv aspektini tilga olganda, uning bir vaqtning o'zida faqat diniygina emas, balki u yoki bu madaniyatga oid axborotni tashiy olish potensialini ham inobatga olish zarur. Diniy markerlangan allyuziya har doim umummadaniy element, ya'ni lingvokulturologik birlik hisoblanadi. Bu allyuziyaning madaniy markerlanganlik xususiyatini ham ko'rsatadi. Shunday qilib, diniy markerlangan allyuziyalar adresatdan kognitiv faollikdan tashqari madaniy axborotni interpretatsiya qilish imkonini beruvchi madaniy savodxonlik hamda konseptual dunyoqarashni ishga solishni ham talab etadi. Bu borada S. Kubryakova shunday degan: "Allyuziya inson psixikasida to'planib boruvchi xotira, leksikon, konseptual dunyoqarashni o'zida jam qiluvchi til vositasidir".

Diniy markerlangan allyuziyalar adabiy matnda intertekstuallik markeri sifatida qo'llaniladi va ma'lum bir diniy matndagi shaxs, voqea-hodisa yoki joyga nisbatan ishora qilib, pretsedent va retsipient matn o'rtasida maxsus aloqa o'rnatishidan tashqari, diniy markerlangan allyuziya kognitiv-stilistik vosita sifatida adabiy matnda konseptual ahamiyat ham kasb etadi. Diniy markerlangan allyuziyalar pretsedent vaziyatni kitobxon ongida faollashtiradi va kichik hajmda bo'lsada (so'z, so'z birikmasi, frazeologik birlik) katta o'lchamdagi ensiklopedik axborotni gavdalandiradi. Bunda diniy markerlangan allyuziyaga retsipient matnda qo'shimcha konseptual ma'no yuklanadi. Yuzaga kelgan allyuziv jarayonda ikki vaziyat taqqoslanadi va qarama-qarshilik yoki o'xshashlik tahlili kitobxon ongida adabiy matnni konseptual yaxlitlik sifatida taqdim etadi: taqqoslash natijalari birinchidan matnning lingvistik birliklar yordamida verballashgan sirtqi qatlami, ikkinchidan esa inson ongida jam bo'lgan konseptual dunyoqarashga asosan to'planadi. Demak, diniy markerlangan allyuziya madaniy hamda konseptual ma'lumotni oydinlashtirishda katta rol o'ynaydi va kitobxonga adabiy matn semantik qatlamini hamda muallifning individual-konseptual dunyoqarashini chuqurroq anglashga ko'maklashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurova D.U. Knowledge and its linguistic representation\\Хорижий филология: тил, таълим, адабиёт. Самарқанд, 2015. – № 3 (40). – С.5-10
2. Ashurova D.U., Galieva M.R. Stylistics of literary text. – Tashkent: Turon-Iqbol, 2016. – 324 p.
3. Ashurova D.U., Galieva M.R. Cognitive linguistics. – Tashkent: Vneshinvestprom, 2018. -160 p.
4. Galperin I.R. English Stylistics. 3rd edition, Moscow: Visshaya shkola, 1981